

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.12.2019.Tib.62.01 ILMIY
KENGASH**

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

QODIROV RAUFXON RAXMONJON O'G'LI

**SON SUYAGI KO'STLARI SINISHLARIDA JARROHLIK USULLARINI
TANLASH**

14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstracts of Doctor of Philosophy (PhD)

Qodirov Raufxon Raxmonjon o‘g‘li

Son suyagi ko‘stlari sinishlarida jarrohlik usullarini

tanlash.....

Кодиров Рауфхон Рахмонжон угли

Выбор методов хирургического лечения при вертельных

переломах бедренной кости.....

Kadirov Raufkhan Rakhmonjon ogli

Selection of surgical treatment methods for trochanteric fractures of
the femur

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.12.2019.Tib.62.01 ILMIY
KENGASH**

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

QODIROV RAUFXON RAXMONJON O'G'LI

**SON SUYAGI KO'STLARI SINISHLARIDA JARROHLIK USULLARINI
TANLASH**

14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Tib3392 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzniito.uz) «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) va Milliy axborot agentligi portalida (www.uza.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Irismetov Murodjon Ergashovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Pavlov Vitaliy Viktorovich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent
(Rossiya Federatsiyasi)

Akramov Vohidjon Rustamovich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi

Dissertatsiya himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.62.01 ilmiy kengashning 2025 yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Mahtumquli ko'chasi, 78. Tel./: (+99871) 233-10-30; e-mail: niito-tashkent@yandex.ru. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining konferens-zali).

Dissertatsiya bilan Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Mahtumquli ko'chasi, 78. Tel.: (+99871) 233-10-30. Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi. (2025 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

A.M. Djuraev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisining
o'rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor

U.M. Rustamova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
tibbiyot fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

A.M. Dursunov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlari keksa va o'rta yoshliklar orasida «...9,4% dan 45,8% gacha tashkil qiladi»¹. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ushbu sinishlarning asosiy sabablaridan biri osteoporoz hisoblanib, u doimiy ravishda intensiv o'sib bormoqda, 2050 yilga kelib ayollarning 50%ida osteoporoz kasalligi va ulardan 15%ida son suyagi ko'stlari sinishlari kuzatilish taxmin qilingan. Birlashgan hamdo'stlik mamlakatlarida esa «...100000 aholida bir yil ichida 1000 kishida son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlari holatlari qayd etilgan...»² va bu ko'rsatgich yosh kattalashgan sari oshib borgan. Son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarida asoratlarning uchrash darajasi yuqoriligi, osteosintez usullarini rejalashtirish va davolash bo'yicha yangi innovatsion g'oyalar va texnologiyalar joriy etishga ehtiyoj borligi ilmiy tadqiqotning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Jahonda son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarini tashxislash va davolash hamda asoratlarni kamaytirish borasida qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda, hozirgi kunda Gamma tizimi (PFNA-Proximal femur nail antirotation), Bloklovchi intramedulyar sterjen (LIN-Locking intramedullary nail), Dinamik son vintlar (DHS-dynamic hip screw), Bloklovchi plastina (LCP-Locking compression plate), kaminvaziv usulda plastina bilan osteosintezlash (MIPO - Minimally Invasive Plate Osteosynthesis) amaliyotlari bilan osteosintezlash usullari a'zoni saqlab qoluvchi amaliyotlar sifatida takomillashmoqda. Keks yoshdagi va yondosh kasalliklari bo'lgan bemorlarda artroplastika amaliyotlari qo'llanilmoqda. Yuqorida keltirilgan zamonaviy davolash usullarini amaliyotda qo'llanilishiga qaramasdan, jarrohlik amaliyotlaridan keyingi davrda, implantlar migratsiyasi va sinishi, coxa vara, posttravmatik artroz, siniqni bitmasligi, jarohatlarning ikkkilamchi bitishi, yotoq yaralar rivojlanishi kabi qator asoratlar uchrashi ushbu muammoni to'liq xal etilmaganligini isbotlaydi.

Respublikamizda tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirishning ustuvor vazifalaridan biri tayanch-harakat a'zolarining shikastlanishlarida tibbiy yordam ko'rsatish sifatini ilg'or texnologiyalar va zamonaviy usullarni amalda qo'llagan holda yanada takomillashtirish, «...aholiga tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish, diagnostika va davolashning yuqori texnologiyali usullarini joriy etish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni oldini olish...»³ maqsad qilingan. Katta yoshdagi bemorlarni davolashda jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlarni kamaytirish orqali davolash natijalarini yaxshilashga qaratilgan vazifalar, jumladan, tashxislash va davolashning innovatsion usullarini amalda qo'llash belgilangan. Shu bilan birga, son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarini davolash

¹ Trincado, R. M., Mori, M. A. K., Fernandes, L. S., Perlaky, T. A., & Hungria, J. O. S. (2022). Epidemiology of proximal femur fracture in older adults in philanthropical hospital in são Paulo. *Acta ortopedica brasileira*, 30(6), e255963

² Schroeder, J. D., Turner, S. P., & Buck, E. (2022). Hip Fractures: Diagnosis and Management. *American family physician*, 106(6), 675–683

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda 5590-son «Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida» gi Farmoni

borasida ilmiy tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish uchun travmatologiya va ortopediya sohasida izlanishlar olib borish ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 fevraldagi PF-74-son «Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni va 2021 yil 26 iyuldagi PQ-5198-son «Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oxirgi yillarda katta yoshli bemorlarda son suyagi ko'stlari sinishlari barcha sinishlarning taxminan 20-35 % ni tashkil etishi adabiyotlarda keltirilgan (Sanfilippo et al., 2012; Silvia et al., 2018). Son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarini konservativ davolashda, bemorlarda uzoq vaqt davomida harakat cheklanishi natijasida yotoq yaralar, venalar trombozi va o'pka arteriyalari emboliasi va ko'p holatlarda depressiya kabi ruhiy holatini buzilishidan aziyat chekadilar (Mouzopoulos et al., 2012). Ushbu muammoni bartaraf etishda, davolashning muhim mezonlari bo'lib bemorni erta faollashtirish, son mushak massasini kamayishini oldini olish maqsadida jarrohlik amaliyoti muqobil yechim hisoblanadi. Ammo, son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarini jarrohlik usullari bilan davolashda, bir qator omillar, bemorning yoshga xos xususiyatlari, jumladan, osteoporoz, hamda jarrohlik amaliyoti uchun implant elementlarini siniq turiga nomutanosib tanlanishi bemorlarda jarrohlik amaliyotidan keyingi davrda asoratlarni uchrashiga sabab bo'ladi, jumladan, jarohatga infeksiya tushishi 2-3%, son suyagi boshchasining nekrozi 5% dan 40% gacha, siniqlarning bitmasligi 5-30%, holatlarda kuzatiladi (Ricci et al., 2010; Hashimoto, Kazuhiko et al., 2023; Yu, Weiguang et al., 2016). Dunyo miqyosida, son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarini tashxislash va davolash usullarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. (Belinov N.V., 2016; Collinge C.A., Hymes R., et al., 2016; Medda, S., Sullivan R et al., 2019).

O'zbekistonda son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlari va asoratlarni uchrash darajasi yuqoriligi sababli, davolash natijalarini yaxshilash va asoratlarni kamaytirish borasida ilmiy ishlar olib borilgan (Davletov K.X., 1990; Alibekov M.M., 2001; Dursunov A.M., 2003). Son suyagini proksimal qismini davolashda suyak usti osteosintezi uchun moslamalar ixtiro qilingan va takomillashtirilgan (Shamshimetov D.F va boshqalar, 2011, Dursunov A.M., 2013). Bugungi kungacha son suyagi proksimal qismi sinishlarini davolashda jahon standartlari mos keladigan suyak usti (LCP va MIPO) va suyak ichi (BIOS va Gamma sterjen) osteosintezi usullaridan foydalanilmoqda (Dursunov A.M., Saydiqmatxonov S.S., Rustamova U.M., 2012).

Son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlari boshqa turdagi sinishlarga nisbatan ko'p uchrashi, dunyo mutaxassislari va ortopedlar assotsiyalari (AO) taklif

qilayotgan yuqorida keltirilgan osteosintez turlarida ham asoratlar kuzatilmoqda (Thomas P., Ruedi va boshqalar, 2000). Siniq turining tasniflanishini murakkabligi (ko'stlar aro, ko'stlar ora, ko'stlar osti), osteosintez turlari ko'pligi sababli mutaxassislar o'rtasida suyak usti yoki suyak ichi osteosintezini qo'llash borasida bahs va munozaralar davom etib kelmoqda. Shuningdek har bir siniqqa individual yondashish va siniq turini hisobga olgan holda implant va uning elementlarini jarrohlik amaliyotidan oldin tanlash va jarrohlik amaliyotini oldindan rejalashtirish uchun matematik modellashtirish va rejalashtirish kabi fikrlar mavjud (Majoor B.C.J., Leithner A. va boshqalar, 2018). Matematik modellashtirish, son suyagi proksimal qismi sinishlarida metall osteosintezlash amaliyotidan keyingi holatni yaxshilanishini uchun foydali bo'lishi mumkin. Modellashtirish, implantning eng qulay variantini va barqaror osteosintez turini tanlash, asoratlar xafvlarini nisbatan aniqroq baholash ehtimolligini oshiradi (Kalashnikov A.V., 2016). Bundan tashqari, modellashtirish, eng samarali reabilitatsiya strategiyalarini aniqlashga yordam berganligi sababli shifokor uchun kerakli qaror qabul qilishni osonlashtiradi. Son suyagi ko'stlari siniqlarini davolashda universal ravishda biron bir davolash usulini dominant qilib olgan holda qo'llash orqali emas, balki siniq xususiyatini e'tiborga olgan holda implantlarni tanlash orqali ijobiy natijaga erishish mumkinligi, yangi zamonaviy tibbiyot usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Ushbu sinishlarni davolashda qator zamonaviy usullarning ishlab chiqilishiga qaramay, asoratlar sonini kam emasligi muammoning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy amaliy tibbiyot markazi ilmiy tadqiqotlari rejalari doirasida 2018-2025 yillar davomida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi son suyagining ko'stlari sohasidan sinishlarida zamonaviy dasturlar yordamida bemorlarning funksional holati va siniq turiga mos keladigan jarrohlik usullarini tanlash, ularni amaliyotda qo'llash orqali davolash natijalarini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

son suyagi ko'stlari sinishlarini davolash natijalarini retrospektiv baholash, klinik, MSKT va densitometrik tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish asosida artroplastika yoki osteosintez usullarini tanlash dasturini ishlab chiqish;

son suyagi ko'stlari sinishlari turlariga mos keladigan jarrohlik usullarini tanlash dasturini, hamda ularga xos ko'rsatmalarni AO klassifikatsiyasi turlari bo'yicha son suyagi ko'stlari sinishlarini jarrohlik yo'li bilan davolashda MSKT 3D tekshiruvi ko'rsatkichlariga asoslangan holda son suyagi bo'yin-diafizar burchagini ideal saqlanib qolishiga olib keluvchi 3D repozitsiya tartibini ishlab chiqish;

matematik modellashtirish elektron dasturi ishlab chiqish va uni qo'llash orqali son suyagi ko'stlarining turli siniqlarini tiklash uchun implant elementlarining individual o'lchamlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash;

ishlab chiqilgan jarrohlik usullarini amaliyotda tadbiq etish samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida 2018-2023 yillarda son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlari tashxisi bilan davolangan 99 nafar bemorlar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliyot tibbiyot markazida o'tkazilgan instrumental va laborator tekshiruvlar, ishlab chiqilgan elektron dasturlar, foydali model va statistik ishlanmalar orqali olingan tadqiqot natijalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari klinik, laborator-instrumental, MSKT, statistik tekshiruv usullaridan iborat bo'ldi.

Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

son suyagi ko'stlari sinishlarini davolash natijalarini retrospektiv MSKT tekshiruvlari tahlili asosida asoratlangan va asoratlanmagan ayol va erkak bemorlar guruhlarida son suyaklari proksimal qismida densitometrik Xaunsfild indeksining o'rtacha ko'rsatkichlarining bemorlar o'rtacha yoshini o'sishi, hamda yondosh kasalliklarning mavjudligi bilan, ayniqsa ayollarda, teskari korrelyatsiyalanishi aniqlangan, bunda bemor yoshi va yondosh kasalliklar soni o'sishi bilan mineral zichlikning pasayishi o'z navbatida asoratlar sonining o'sishiga omil bo'lishi isbotlangan;

AO klassifikatsiyasi turlari bo'yicha son suyagi ko'stlari sinishlarini jarrohlik yo'li bilan davolashda MSKT 3D tekshiruvi ko'rsatkichlariga asoslangan holda son suyagi bo'yin-diafizar burchagini ideal saqlanib qolishiga olib keluvchi 3D repozitsiya tartibi suyak usti plastinasini o'rnatish yoki suyak ichi osteosintezini bajarish usullaridan birini tanlash uchun ishonchli omil ekanligi isbotlangan;

osteosintezdan oldingi 3D matematik modellash dasturi yordamida implant elementlarining ishonchli o'lchamlari va joylashuvini aniqlanish orqali barqaror osteosintezga erishilishi natijasida operatsiya jarayoni davomiyligi, yo'qotilgan qon miqdori va bemorni shifoxonada bo'lish muddatining kamayishi isbotlangan;

son suyagi ko'stlari sinishlarida suyak bo'laklarini bloklovchi plastina bilan osteosintez usuli ishlab chiqilgan, bunda an'anaviy bloklovchi elementlar qatorida, bitta markaziy spongioz shurup bilan fiksatsiyalash natijasida suyak + implant birligining o'rtacha kompressiya samarasiga erishilganligi isbotlangan;

AO klassifikatsiyasi 31-A1 sinish turlarida sonning tashqi yon tomonidan katta ko'st ustida 4 sm.dan oshmagan uzunlikka ega bo'lgan kesim yordamida miniinvaziv jarrohlik yondashuv ishlab chiqilgan, bunda repozitsion stabillik, suyak usti pardasi butunligi saqlanib qolishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Retrospektiv tahlillar natijasida bemorlarning xususiyatlarini (jinsi, yoshi, yondosh kasalliklari) hisobga olgan holda jarrohlik usullarini (artroplastika va osteosintezlash) tanlash mezonlari ishlab chiqilgan;

Son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarida, sinik turiga mos osteosintezlash (suyak usti va suyak ichi) usullarini tanlash dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etilishi natijasida asoratlarni kamayishiga erishilgan;

son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarida siniqlarni virtuellashtirish yordamida implant elementlarining ishonchli o'lchamlari va joylashuvini oldindan

aniqlash yordamida osteosintez barqarorligi, amaliyot davomiyligini qisqarishi, yo'qotilgan qon hajmini kamayishi, statsionar kunlarini qisqarishi isbotlangan;

son suyagi ko'stlari sinishlarida suyak bo'laklarini bloklovchi plastina yordamida suyak usti osteosintezi usuli ishlab chiqilgan, suyaklarning o'rtacha kompressiyasiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi klinik, laborator, rentgenologik, MSKT, densitometrik tekshiruvlar, Leken hamda, Harrisning chanoq-son funksional baholash shkalalari orqali olingan natijalar statistik tahlillar yordamida tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarini davolashdagi asoratlangan va asoratlanmagan ayol va erkak bemorlar guruhlarida o'tkazilgan retrospektiv MSKT tekshiruvlariga asoslangan Xaunsfild indeksi va densitometrik ko'rsatkichlarining o'rtacha tahlili natijalari asosida bemorlar yoshini o'sishi bilan suyak mineral zichligi o'rtasida teskari korrelyatsiyalanishi va bloklovchi plastina yordamida suyak usti osteosintezi usulida an'anaviy bloklovchi elementlar qatorida, bitta markaziy spongioz shurup bilan fiksatsiyalash natijasida suyak + implant birligining o'rtacha kompressiya samarasiga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati son suyagi ko'stlari sohasidan sinishlarini, bo'yin-diafizar burchagini ideal saqlanib qolishini ta'minlash maqsadida AO klassifikatsiyasi turlari bo'yicha osteosintezlash usullarini tanlagan holda, implant o'lchamlari va joylashuvini jarrohlik amaliyotidan oldin rejalashtirish, suyak usti plastinasi bilan osteosintezlashda miniinvaziv jarrohlik usuli va suyak ichi osteosintezlash amaliyotida fiksatsiyalovchi elementlarni 90° burchak ostida maxkamlash, amaliyot jarayoni davomiyligini, yo'qotilgan qon miqdori va bemorni shifoxonada bo'lish muddatining kamayishlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2024 yilning 26 noyabrdagi 9-son bayonnamasi xulosasiga asosan (Sog'liqni saqlash vazirligiga Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy markazining 2024 yil 18 noyabrdagi 03/1170-son xati yuborilgan):

birinchi ilmiy yangilik: son suyagi ko'stlari sinishlarini davolash natijalarini retrospektiv MSKT tekshiruvlari tahlili asosida asoratlangan va asoratlanmagan ayol va erkak bemorlar guruhlarida son suyaklari proksimal qismida densitometrik Xaunsfild indeksining o'rtacha ko'rsatkichlarining bemorlar o'rtacha yoshini o'sishi, hamda yondosh kasalliklarning mavjudligi bilan, ayniqsa ayollarda, teskari korrelyatsiyalanishi aniqlangan, bunda bemor yoshi va yondosh kasalliklar soni o'sishi bilan mineral zichlikning pasayishi o'z navbatida asoratlar sonining o'sishiga omil bo'lishi isbotlangan va Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Toshkent viloyati filliali (20.05.2024 y.; №132), va Navoiy viloyati Ko'p tarmoqli tibbiyot markazi (10.05.2024 y.; №57) amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quydagilardan iborat: jarrohlik amaliyotlarini (artroplastika va osteosintezlash) turi Xaunsfild indeksi va densitometrik (T-score) ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda to'g'ri tanlash dasturini ishlab chiqilishi, kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlarni 4,54 % gacha tushirish imkonini berdi; taklif

etilgan dasturdan foydalanib, individual yondashish asoratlar sonini kamaytirdi va tashxislash sifatini yaxshiladi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi*: bemorning shifoxonadagi 12 kunlik davri uchun 11140600 so‘m. (shifoxonada 1 kun davolanish o‘rtacha 928384 so‘mni tashkil qiladi); implant o‘rtacha 4544000 so‘mni tashkil qiladi. Asorat kuzatilgan bemorni shifoxonada davolanishi va qayta amaliyot uchun implantlarni ishlatmaslik natijasida 15684600 so‘mni iqtisod qilinishiga imkon beradi. Amaliyot turini to‘g‘ri tanlanishi bemorlarni erta reabilitatsiya qilish, ularni aktivlashtirishni tezlashtirib, keyinchalik nogironlik sabablarini bartaraf etish imkonini beradi. *Xulosa*: Xaunsfild indeksi va densitometrik (T-score) ko‘rsatkichlariga asoslangan holda amaliyot turini tanlanishi 1 ta bemor uchun o‘rtacha 15684600 so‘m iqtisod qilishga imkon berdi.

ikkinchi ilmiy yangilik: AO klassifikatsiyasi turlari bo‘yicha son suyagi ko‘stlari sinishlarini jarrohlik yo‘li bilan davolashda MSKT 3D tekshiruvi ko‘rsatkichlariga asoslangan holda son suyagi bo‘yin-diafizar burchagini ideal saqlanib qolishiga olib keluvchi 3D repozitsiya tartibi suyak usti plastinasini o‘rnatish yoki suyak ichi osteosintezini bajarish usullaridan birini tanlash uchun ishonchli omil ekanligi isbotlangan va Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Toshkent viloyati filliali (20.05.2024 y.; №132), va Navoiy viloyati Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi (10.05.2024 y.; №57) amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: Siniq turiga (AO/AOSIF tasnifi) asoslangan holda osteosintez usullarini tanlash orqali davolash sifatini yaxshiladi, asoratlar tufayli endoprotezlash amaliyotiga bo‘lgan talabni 13,6% ga kamaytiradi va bu amaliyotchi shifokorlar uchun amaliyotdan oldin, osteosintez turini to‘g‘ri tanlash imkonini beradi; *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: bemorning shifoxonadagi 12 kunlik davri uchun 11140600 so‘m. (shifoxonada 1 kun davolanish o‘rtacha 928384 so‘mni tashkil qiladi); implant o‘rtacha 4544000 so‘mni tashkil qiladi. Asorat kuzatilgan bemorni shifoxonada davolanishi va qayta amaliyot, davolanish va implantlarni ishlatmaslik natijasida 15684600 so‘mni iqtisod qilinishiga imkon beradi. Endoprotezlash amaliyot taklif qilingan jarrohlik amaliyotini farqi 1120000 so‘mni iqtisod qilish imkonini beradi; endoprotez impantlarini ishlatmaslik 26000000 so‘mni tashkil qiladi. *Xulosa*: Son suyagi ko‘stlari sinishlarini siniq turiga asoslangan holda osteosintez usullarini tanlash 1 bemor uchun 15684600 dan 38260600 so‘mgacha iqtisod qilish imkonini berdi.

uchinchi ilmiy yangilik: osteosintezdan oldingi 3D matematik modellashtirish dasturi yordamida implant elementlarining ishonchli o‘lchamlari va joylashuvini aniqlanish orqali barqaror osteosintezga erishilishi natijasida operatsiya jarayoni davomiyligi, yo‘qotilgan qon miqdori va bemorni shifoxonada bo‘lish muddatining kamayishi isbotlangan va Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Toshkent viloyati filliali (20.05.2024 y.; №132), va Navoiy viloyati Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi (10.05.2024 y.; №57) amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: 3D matematik modellashtirish dasturi bilan bilan bajarilgan osteosintezlash amaliyotida, implantlar, ularning o‘lchamlari 3D formatda modellashtirish orqali jarrohlik amaliyotidan oldin implant elementlarini o‘lchamlari aniqlanganligi sababli, jarrohlik amaliyoti vaqti va jarrohlik amaliyotida

yo‘qotiladigan qon hajmi kamaydi; oldindan aniqlangan implant elementlarining o‘lchamlari ortiqcha jarohatlashni oldini olishga imkon berdi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: jarrohlik amaliyotida vaqti o‘rtacha 19,4 daqiqaga kamaydi (3D matematik modellashtirishdan foydanlanmasdan bajarilgan jarrohlik jarrohlik amaliyoti vaqti o‘rtacha 75 daqiqa), bu jarrohlik amaliyotini narxi 2464000 so‘m, 19,4 daqiqa iqtisod qilingan jarrohlik amaliyoti 1826645 so‘mni tashkil qiladi va bu 637355 so‘mni iqtisod qilishga imkon berdi; bemorni shifoxonada qolish mudatini 12 kundan 10 kungacha qisqartirib, shifoxonada qolish to‘lov miqdorini taxminan 1856760 so‘mga kamaytirdi (shifoxonada 1 kun davolanish o‘rtacha 928384 so‘mni tashkil qiladi); *Xulosa*: 3D matematik modellashtirish orqali fiksatsiyalovchi implant elementlarini o‘lchamlarini va joylashuvini oldindan aniqlanganligi 1 bemor uchun 2494115 so‘m iqtisod qilish imkonini berdi;

to‘rtinchi ilmiy yangilik: son suyagi ko‘stlari sinishlarida suyak bo‘laklarini bloklovchi plastina yordamida suyak usti osteosintezi usuli ishlab chiqilgan, bunda an’anaviy bloklovchi elementlar qatorida, bitta markaziy spongioz shurup bilan fiksatsiyalash natijasida suyak + implant birligining o‘rtacha kompressiya samarasiga erishilganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Toshkent viloyati filliali (20.05.2024 y.; №132), va Navoiy viloyati Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi (10.05.2024 y.; №57) amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: ishlab chiqilgan jarrohlik usuli suyaklarni tez va samarali repozitsiya qilishi, jarrohlik amaliyoti vaqtini qisqarishi, chanoq-son bo‘g‘imi funksiyasini to‘liq tiklashi, qoniqarsiz natijalarni 4,54%gacha kamaytirishga imkon berdi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: bemorni shifoxonada qolish muddatini 12 kundan 10 kungacha qisqartirib, shifoxonada qolish to‘lov miqdorini taxminan 1856760 so‘mga kamaytirdi (shifoxonada 1 kun davolanish o‘rtacha 928384 so‘mni tashkil qiladi); siniqni o‘rtacha kompressiyaga erishilganligi natijasida, reabilitatsiya jarayonlarni erta boshlashga va nogironlik darajasini pasaytirishni iqtisod qilish imkonini berdi. *Xulosa*: Son suyagi ko‘stlar aro sinishlarida osteosintez usulini qo‘llash 1 bemor uchun 1856760 so‘mni iqtisod qilish, reabilitatsiya jarayonlarini erta boshlash va nogironlik darajalarini pasaytirish imkonini berdi.

beshinchil ilmiy yangilik: AO klassifikatsiyasi 31-A1 sinish turlarida sonning tashqi yon tomonidan katta ko‘st ustida 4 sm.dan oshmagan uzunlikka ega bo‘lgan kesim yordamida miniinvaziv jarrohlik yondashuv ishlab chiqilgan, bunda repozitsion stabillik, suyak usti pardasi butunligi saqlanib qolishi isbotlangan va Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Toshkent viloyati filliali (20.05.2024 y.; №132), va Navoiy viloyati Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi (10.05.2024 y.; №57) amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: jarrohlik davolash usuli miniinvaziv usulda amalga oshirilishi, amaliyot davomiyligini 19,4 daqiqaga kamaytirishi; amaliyot paytida to‘qimalarning shikastlanishini minimallashtirishi, amaliyot vaqtida yo‘qotilgan qon miqdorini 140,0 ml.gacha kamayishi davolash sifatini yaxshiladi va erta reabilitatsiya qilish imkonini berdi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: bemorni shifoxonada qolish muddatini 12 kundan 10 kungacha qisqartirib

(shifoxonada 1 kun davolanish o'rtacha 928384 so'mni tashkil qiladi); shifoxonada qolish to'lov miqdorini taxminan 1856760 so'mga kamaytirdi, jarrohlik amaliyoti vaqti o'rtacha 19,4 daqiqaga kamaydi, jarrohlik amaliyotini narxi 2464000 so'm, 19,4 daqiqa iqtisod qilingan jarrohlik amaliyoti 1826645 so'mni tashkil qiladi va bu 637355 so'ni iqtisod qilishga imkon berdi. miniinvazivlik va yo'qotilgan qon hajmi 140,0 ml.gacha kamayishi natijasida reabilitatsiya jarayonlarini erta boshlashga va nogironlik darajasini pasaytirishni iqtisod qilish imkonini berdi. *Xulosa:* son suyagi ko'stlar aro sinishlarida osteosintez usuli 1 bemor uchun 2494115 so'mni iqtisod qilish, reabilitatsiya jarayonlarini erta boshlash bilan asoratlar sonini kamaytirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar va asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xotima, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar, qisqartmalar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari ifodalab berilgan, olingan natijalarining ilmiy yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyati keltirilgan, ish natijalarini aprobatyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning **«Son suyagining ko'stlar sohasidan sinishlarini davolashdagi muammolar va ularni bartaraf qilish uchun zamonaviy qarashlar»** deb nomlangan birinchi bobida, son suyagi proksimal qismi sinishlaridagi muammolar va davolash usullarining kamchiliklari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu o'tkazilgan adabiyotlar tahlillari asosida dissertatsiyaning maqsad va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning **«Bemorlar xususiyatlari va tekshiruv usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida, ilmiy tadqiqotda qo'llanilgan uslublar, tadqiqot materiallari va tekshiruv usullari haqida to'liq bayon etilgan. Ilmiy tadqiqot ikki bosqichda olib borilgan bo'lib, birinchi bosqichda ikki turdagi (osteosintezlash va artroplastika) jarrohlik amaliyotlari o'tkazilgan bemorlarda jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlarning demografik, hamda yondosh kasalliklariga bog'liqlik sabablarini, Haunsfild ko'rsatgichi bilan bog'liqliklari bilan baholash asosida retrospektiv tahlil etildi. Ikkinchi bosqich Longitudinal ilmiy izlanish usulida tahlil etildi. Ushbu bosqichda, yuqorida keltirilgan retrospektiv tahlillar natijalari asosida ajratib olingan osteosintezlash amaliyoti talab etiladigan bemorlarda, sinig turiga

mos ravishda osteosintezlash amaliyotini tanlash, osteosintezlash amaliyotini jarrohlik oldi davrida 3D modellashtirish bilan rejalashtirish bilan birga biz tomondan taklif etilayotgan osteosintezlash amaliyoti bilan jarrohlikdan keyingi asoratlarga va jarrohlik amaliyoti vaqtiga, davolash kunlariga jarrohlik amaliyotining samaradorligiga va jarrohlikdan keyingi kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlarga ta'sirini baholashdan iborat.

Yuqorida keltirilganidek ilmiy tadqiqot ishi ikki bosqichda va ikki uslubda olib borilganligi va ilmiy tadqiqot uslubiyatlarida bemorlar xususiyatlarida farqlar bo'lganligi sababli, xar bir bosqichda o'rganilgan bemorlarning xususiyatlarini alohida yoritib chiqdik.

Birinchi bosqichda osteosintezlash va artroplastika amaliyotlari bajarilgan n=70 (n=31 erkak va n=39 ta ayol) bemorlardan iborat bo'lib, ushbu bemorlar kasallik tarixlari retrospektiv yozma (retrospective descriptive) usulida tahlil etildi. (1-jadval).

1-jadval

Bemorlarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi

Jins	Asoratlarni kuzatilgan (n=18)	Asoratlarni kuzatilmagan (n=52)
Ayol N (%)	10 (55.6%)	29 (55.8%)
Erkak N (%)	8 (44.4%)	23 (44.2%)
Jami	18 (100%)	52 (100%)

Asoratlarni kuzatilgan guruhdagi umumiy bemorlar soni n=18 ni tashkil etgan bo'lib shulardan n=8 (44.4%) erkak va n=10 (55.6%) ayol jinsiga ta'luqli. Ushbu guruh bemorlarida jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlarni demografik xususiyatlari, yondosh kasalliklari, Haunsfeld indeksi bilan baholandi va asoratlarni kuzatilmagan bemorlar guruhi bilan solishtirildi.

Bemorlarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishidan shuni xulosa qilish mumkinki, jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlarning kuzatilishi xavfi yosh kattalashishi bilan oshib boradi. (2-jadval)

2-jadval

Bemorlarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

Yosh guruhlari	Asoratlarni kuzatilgan n=18	Asoratlarni kuzatilmagan n=52
18-39 yosh	3 (16.6%)	15 (28.85%)
40-59 yosh	5 (27.78 %)	23 (44.23%)
60-74 yosh	8 (44.4)	9 (17.31%)
75 dan yuqori	2 (11.1%)	5 (9.62 %)
Jami	18 (100%)	52 (100)

Ilmiy tadqiqotimizning ikkinchi bosqichida son suyagi koʻstlari sohasidan singan va jarrohlik usulida osteosintez amaliyoti bajarilgan n=99 (n=70 erkak va n=29 ta ayol) bemorlar kasallik tarixlari retrospektiv usulda va jarrohlik amaliyoti natijalarini baholash uchun prospektiv usullarda kuzatildi. Bemorlar asosiy va nazorat guruhlariga ajratildi.

Asosiy guruh sifatida n=44 ta (n=30 ta erkak va n=14 ayol) bemor, son suyagi koʻstlari sohasidan singanligi sababli, implantlarni eng mos keluvchi oʻlchamlarini, hamda optimal joylashuvini taʼminlash maqsadida osteosintezdan oldingi davrda, singan son suyagi proksimal qismi matematik modellashirish asosida virtuellashtirilgan, shu bilan birga son suyagini suyak usti (MIPO va LCP) va bloklovchi intramedullar sterjen yordamida osteosintezlash (BIOS) amaliyoti bajarilgan bemorlardan iborat.

Nazorat guruhi n=55 (n=40 erkak va n=15 ayol) bemorlari son suyagi koʻstlari sohasidan singanligi sababli anʼanaviy usullarda osteosintezlash amaliyotini oʻtkazgan bemorlardan tashkil topgan.

Ilmiy tadqiqotimiz 50 yoshdan 93 yoshgacha boʻlgan bemorlarni oʻz ichiga olgan boʻlib, bemorlarning oʻrtacha yosh koʻrsatkichi 63.7 yoshni tashkil etdi

50-69 yosh orasidagi bemorlar, ilmiy tadqiqotga kiruvchi bemorlarning katta qismini tashkil etgan boʻlib, bemorlarning taxminan 78.8% ni, yaʼni 78 bemorni oʻz ichiga oladi (3-jadval).

3-jadval

Bemorlarni yosh va jins boʻyicha taqsimlanishi

Yosh guruhlari	Jinsi	Asosiy N=44 N, %	Nazorat N=55 N, %	Umumiy N=99 N, %
<40	Ayol	0	0	0
	Erkak	14 (31.82)	14 (25.45)	28 (28.2)
40-49 yosh	Ayol	2 (4.55)	3 (5.45)	5 (5.05)
	Erkak	5 (11.36)	12 (21.82)	17 (17.17)
50-59 yosh	Ayol	1 (2.27)	3 (5.45)	4 (4.04)
	Erkak	1 (2.27)	5 (9.09)	6 (6.06)
60-69 yosh	Ayol	7 (15.91)	3 (5.45)	10 (10.01)
	Erkak	9 (20.45)	5 (9.09)	14 (14.14)
70-79 yosh	Ayol	2 (4.54)	4 (7.27)	6 (6.06)
	Erkak	0	2 (3.64)	2 (3.64)
80<	Ayol	2 (4.55)	2 (3.64)	4 (4.04)
	Erkak	1 (2.27)	2 (3.64)	3 (3.03)

Ilmiy tadqiqotdagi bemorlarning sinish turlari boʻyicha taqsimlanishida, asosiy hamda nazorat guruhlarida orasida klinik va statistik jihatdan ahamiyatga ega farq topilmadi. Myuller tasnifi (AO Foundation) boʻyicha sinig turlari ikkala guruhda deyarli bir hil tarqalgan boʻlib, bu statistik jihatdan ahamiyatli deb topilmadi, shu sababli statistik xatolik yuz bermaydi (4-jadval).

Bemorlarni AO/ASIF tasnifi bo'yicha taqsimlanishi

Siniq turi (AO/ASIF)	Asosiy N=44 N, %	Nazorat N=55 N,%	Umumiy N=99 N, %
A1	19 (43.18)	17 (30.91)	36 (36.36)
A2	11 (25.0)	21 (38.18)	32 (32.32)
A3	14 (31.82)	17 (30.91)	31 (31.31)
$\chi^2=2.33, p=0.311$			

Ilmiy tadqiqot vazifasi va maqsadlarini amalga oshirishda, klinik, instrumental statistik hamda nazorat guruhdan farqli ravishda asosiy guruhdagi bemorlar uchun biz tomondan ishlab chiqilgan dasturlar va usullardan foydalanildi.

Dissertatsiyaning «Son suyagi ko'stlari qismidan sinishlarida an'anaviy va matematik modellashtirish yondashuvi bilan davolash usullari» deb nomlangan uchinchi bobida taklif qilingan dasturlar ketma-ketligi keltirilgan bo'lib, bemorlarning funksional holatidan (bemor yoshi, jinsi va yondosh kasalliklari) kelib chiqqan holda jarrohlik usullarini (osteosintezlash yoki artroplastika) aniqlash maqsadida, retrospektiv tahlillar asosida ishlab chiqilgan «Son suyagi ko'stlari sinishlarida jarrohlik usullarini tanlash» (DGU № 42895) dasturi bilan jarrohlik amaliyotidan oldingi davrda, asosiy guruhdagi n=44 bemor uchun jarrohlik usulini aniqlab oldik (1-rasm).

1-Rasm. Son suyagi ko'stlari sinishida, «Son suyagi ko'stlari sinishlarida jarrohlik usullarini tanlash» dasturi orqali jarrohlik usuli (osteosintezlash) tanlangan rasmi

Retrospektiv tahlillar asosida biz jarrohlik amaliyotlarining asoratli va asoratlarsiz yakunlanishi bemorlarning yoshi, jinsi va yondosh kasalliklari bilan bog'liqligini aniqladik. Ushbu dastur, har bir bemorning funksional holati asosida artroplastika yoki osteosintezlash amaliyotini tanlash orqali bemorlarga individual yondashuvni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda, bemorda mavjud bo'lgan sinish turi (AO tasnifi) bo'yicha aniqlanadi va bu ma'lumotlar «Son suyagi ko'stlari sinishida osteosintez usulini tanlash dasturi» (DGU № 27254)ga kiritiladi. Shundan so'ng, dastur orqali bemor uchun mos bo'lgan osteosintez (suyak usti yki suyak ichi) usulini aniqlab olinadi (2-rasm). Asosiy guruhdagi 44 nafar bemordan 20 nafarida (45.5%) suyak ichi osteosintez usuli, 24 tasida (54.5%) suyak usti plastinasi bilan osteosintezlash amaliyoti mos usul ekanligi aniqlandi.

ВЫБОР ОСТЕОСИНТЕЗА ВЕРТЕЛЬНЫХ ПЕРЕЛОМОВ БЕДРЕННОЙ КОСТИ.

Паспорт пациента № И/Б	Фамилия	Имя	Отчество
7472	Mamatlova	Sora	Ravshanovna
Дата рождения	Телефон:	Адрес:	
12.10.1965	90-370-00-86	Suxondaryo vil. Qumqo'g'on tum. Nafchilar	

Классификация по Молтеру

T1-A2.2 - чрезвертельный с формированием двух или более линий колонна, в том числе - в области нижнего вертела (нестабильный перелом)



Выбор метода остеосинтеза по классификации


НАКОСТНЫЙ ОСТЕОСИНТЕЗ ПЛАСТИНОЙ

2-Rasm. Son suyagi ko'stlari sinishida osteosintezlash usulini tanlash dasturi, bemor uchun suyak usti plastinasi bilan osteosintezlash amaliyotini aniqlagani

Tanlab olingan osteosintez usuli «Son suyagi ko'stlari sinishlarida osteosintez uchun fiksatsiya elementlarini tanlash dasturi» (№ DGU 25373) asosiy guruhdagi bemorlarimizning barchasida matematik modellashtirish orqali amaliyotga rejalashtirildi. Matematik modellashtirish amaliyoti asosiy besh bosqichdan iborat ular uyidagilar: 1-bosqich. Birlamchi MSKT ma'lumotlarini 3D shaklga o'tkazish, 2-bosqich. 3D shakldagi tasvirni 1:1 nisbatdagi haqqoniy o'lchamdagi tasvirini ishlash. 3-bosqichda esa ushbu haqqoniy o'lchamdagi tasvirni ranglar bilan kodlash, keyingi 4-bosqichda ranglar bilan kodlangan suyak siniqlari virtual ravishda yig'ilib butun suyak tasviri hosil qilinadi. 5-bosqichda esa, virtuallashtirilgan suyakga implantlar joylashtirib ularning turlari, o'lchamlari va soni aniqlab olinadi. (3-rasm).

Matematik modellashtirish amaliyoti, asosiy guruhdagi n=44 bemorlar uchun bajarildi. Ilmiy tadqiqotimizni amalga oshirishda nafaqat dasturlarlar yordamida jarrohlik amaliyotlarini rejalashtirish, balki, osteosintezlash usullari ham takomillashtirildi. Shu davrgacha amalga oshirilgan jarrohlik amaliyotlarini tahlili asosida 31-A1.1 va 31-A1.2 sinishlari stabil bo'lib, sinig chizig'i katta ko'st sohasidan o'tgan va alohida bo'laklar bo'lmaganligi sababli, katta ko'stning butunligi hisobga olingan holda ushbu bemorlarga MIPO (Kam invaziv usulda


plastina bilan osteosintezlash) amaliyoti o'tkazildi. 31–A2.1, 31–A2.2 va 31–A2.3 sinishlarida kichik ko'stning uzilishi tufayli, nostabil sinishlar turiga kiradi.



3-Rasm. MSKT ma'lumoti 3D formatida ko'rinishi (A), 3D formati STL formatiga o'tkazilgani va 1:1 nisbatdagi 3D tasviri tasviri (B), ranglar bilan kodlangan suyak bo'laklari tasviri (C), matematik modellashtirish asosida virtual ravishda suyak bo'laklari tiklanganligi, implant elementlari bilan fiksatsiya qilinganligi va ularning o'lchamlari tasviri.

Bu turdagi sinishlarda katta ko'st alohida bo'lak bo'lib singan holatlarda, MIPO plastinasi katta ko'stni fiksatsiya qila olmaganligi sababli, katta ko'stni ham fiksatsiya qilish maqsadida LCP plastinasi bilan suyak usti osteosintezi amaliyoti tanlanadi. Ikki turdagi amaliyotlarda ham plastinaning proksimal qismidan bitta spongioz shurup o'tkazilib, implant+suyak va suyak bo'laklari o'rtacha kompressiyasiga erishiladi. (4-rasm).

Bu usul asosiy guruhdagi bemorlarda qo'llanildi va unga «Son suyagini ko'stlar aro sinishlarida osteosintez usuli» (№ FAP 2531) nomli foydali modelga patent olindi. 31–A3.1, 31–A3.2 va 31–A3.3 sinishlarini BIOS amaliyotida proksimal bo'laklardan 127 gradus ostida o'tkazilgan 2 ta shurupning biri siniq chizig'iga tushib qolishi holatlari kuzatilgan.



4-rasm. Suyak usti osteosintezlash amaliyoti uchun jarrohlik kirish (A), osteosintezlash amaliyotida, sonning proksimal qismidan spongioz shurup bilan kompresiya berilganligi (B), son suyagi osteosintez qilingandan keyingi holati (C).

Shu sababli, BIOS amaliyotida shurup yo'nalishi 90 gradus burchak ostida o'tkazilib, son suyagi proksimal qismini 127 gradus burchak ostidagi 2 ta shurup bilan emas, 90 gradus burchak ostidagi 4 ta shurup bilan fiksatsiyalash orqali osteosintez bajarildi. Sterjen teshiklari ushbu 4 ta shurupni o'tkazishga mo'ljallangan.

Dissertatsiyaning "Son suyagi ko'stlari sohasidan singan bemorlarni, retrospektiv tahlillar natijalari va dasturlar yordamida matematik modellashtirish asosida bajarilgan osteosintezlash amaliyotlari natijalarining tahlillari" deb nomlangan to'rtinchi bobida asosiy va nazorat guruhidagi bemorlarning jarrohlik davri, jarrohlikdan keyingi erta va kechki davrlarda uchraydigan asoratlar va bo'g'imning funksional holatlari tahlil etildi.

Dastlab, retrospektiv tahlillar asosida son suyagi ko'stlari siniqlarini davolashda qo'llaniladigan jarrohlik amaliyotlarining asoratli va asoratsiz yakunlangan holatlarini bemorlarning funksional holatlari (yoshi, jinsi yondosh kasalliklariga va suyak zichligi sifati)ga bo'g'liqligi aniqlandi. Chiziqli regressiya (linear regression) tahlili asosida, asoratsiz holatlar bilan yakunlangan, osteosintez amaliyoti o'tkazilgan bemorlarning jinsi va yoshning Haunsfild ko'rsatgichiga bog'liqligi o'rganganildi. Bunda, erkaklarda yosh va Haunsfild ko'rsatgich orasida sust manfiy bog'liqlik aniqlandi $r=-0.27$, hamda o'rtacha yosh $69.7 (\pm 11.01)$ da Haunsfild ko'rsatgichi $95.44 (\pm 19.26)$ ekanligi aniqlandi. Ayollarda esa yosh va Haunsfild ko'rsatgichi o'rtasidagi bog'liqlik erkaklarga nisbatan bir oz yuqori yani $r=-48.3$, ortacha yosh $65.4 (\pm 9.2)$ da Haunsfild ko'rsatgichi $97.29 (\pm 20.84)$ ekanligi va olingan natijalar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi (ayollarda $p>0.0015$, erkaklarda $p>0.0035$) ini aniqladik. Keyingi o'rinda biz, Haunsfild ko'satgichini yondosh kasalliklari (YQT, QD, Tizimli kasalliklari, Osteoporoz) kesimida T-test usuli bilan tahlil etdik, ushbu tahlilda yondosh kasalliklari bor bemorlarning

